



## O‘ZBEKISTONDA YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI: NORMATIV ASOSLAR, PEDAGOGIK KOMPETENSIYA VA TA‘LIMYIY YONDASHUVLAR

**Mengziyayev Rasul Daminovich,**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining  
Toshkent filiali*

*Elektron pochta: [mengziyayev4801@gmail.com](mailto:mengziyayev4801@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashning normativ-huquqiy asoslari, ta‘lim tizimida ushbu sohani o‘qitishning pedagogik va kompetensiyaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. 2021–2022-yillardagi yo‘l-transport hodisalari statistikasi asosida yo‘l harakati qoidalarini takomillashtirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va inson xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha qabul qilingan davlat qarorlarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada “yo‘l harakati kompetensiyasi” tushunchasining mazmuni, uning ta‘lim jarayonidagi o‘rni va UNESCOning “Hayot uchun ta‘lim” konsepsiyasi bilan bog‘liq nazariy asoslari ilmiy jihatdan sharhlanadi. Pedagogik faoliyatda kompetensiyaviy yondashuvning amaliy jihatlari, o‘quvchilarda xavfsiz xulq-atvor, diqqat, kuzatuvchanlik va ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirish mexanizmlari izohlanadi. Muallif yo‘l harakati xavfsizligini o‘qitishda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi, shuningdek, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantirishda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi va psixologik yondashuvning ahamiyatini asoslaydi. Tadqiqot natijalari yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini rivojlantirishda ta‘lim tizimining hal qiluvchi rolini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** yo‘l harakati xavfsizligi, pedagogik kompetensiya, ta‘limiy yondashuv, UNESCO “Hayot uchun ta‘lim” konsepsiyasi, normativ-huquqiy asos, maktabgacha ta‘lim, xavfsizlik madaniyati, kompetensiyaviy yondashuv, o‘quvchi faoliyati, amaliy ko‘nika.

O‘zbekistonda 2021-yil davomida 10 mingdan ortiq yo‘l-transport hodisalari qayd etilib, natijada 9 mingdan ziyod fuqaro turli darajadagi jarohatlar olgan, 2,5 mingga yaqin, jumladan 263 nafar bola halok bo‘lgan. Bu raqamlar mamlakat miqyosida yo‘l xavfsizligini ta‘minlash sohasida jiddiy chora ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. Shu boisdan yo‘l harakati qoidalarini takomillashtirish, avariya sonini kamaytirish va xavfsizlik nazoratini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ–190-sonli “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta‘minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2022-yil 12-aprelda Vazirlar Mahkamasining 172-son “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, unga ilova tarzida yangi tahrirdagi “Yo‘l harakati qoidalari” kuchga kiritildi. Mazkur hujjatda aholining harakat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida bir qator yangiliklar belgilandi, jumladan: aholi punktlarida transport vositalari tezligi soatiga 70 km dan, ta‘lim muassasalari atrofida 300 metrgacha bo‘lgan masofada 30 km dan, turar joy massivlarida esa 20 km dan oshmasligi shart qilib belgilandi.



Yo'l harakati xavfsizligini o'rgatishda pedagoglar o'quvchilarda diqqat, kuzatuvchanlik, harakatlarni muvofiqlashtirish va mantiqiy moslashuvchanlik kabi kognitiv fazilatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Har bir shaxsning yosh, jismoniy imkoniyat va tajribasini inobatga olgan holda uni ko'cha va yo'llarda xavfsiz xatti-harakat qoidalariga o'rgatish dolzarb vazifadir. Ayniqsa, bu jarayon maktabgacha ta'lim bosqichida boshlanib, bolaning butun hayoti davomida uning xulq-atvorining barqaror asosini shakllantiradi.

Yo'l harakati kompetensiyasi deganda shaxsning yo'l harakati qoidalariga rioya etish layoqati, amaliy qobiliyati va tajribasiga egaligi tushuniladi. Bu kompetensiya inson faoliyatining turli jabhalarida, xususan ta'lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Kompetensiya" atamasi ta'lim sohasi terminologiyasiga BMTning YuNESKO tashkiloti huzurida E. For rahbarligida tuzilgan komissiya tomonidan 1972-yilda taqdim etilgan "Hayot uchun ta'lim" konsepsiyasi orqali kirib kelgan. Mazkur konsepsiyada uzluksiz ta'lim jarayonida shaxsning kompetentligini quyidagi to'rt mezon asosida baholash taklif etilgan:

1. Bilimlardan foydalanish – ta'lim oluvchi keng qamrovli bilim asosida tor doiradagi chuqur ixtisoslashgan faoliyatni amalga oshira oladi;
2. Amalni bajarish – shaxs standart ko'nikmalardan tashqari jamoa bilan hamkorlikda ishlash layoqatiga ega bo'ladi;
3. Birgalikda yashash – o'zgalarni tushunish va muammolarni ijtimoiy yo'l bilan hal etish qobiliyatini egallaydi;
4. Rivojlanish – insonning shaxsiy fazilat va imkoniyatlarini kengaytirish orqali uning resurs salohiyatini oshirishga yo'naltiriladi.

Mazkur konsepsiya ta'lim oluvchining kompetentlik darajasi hayot davomida takomillashib borishini va zarur hollarda o'qishni davom ettirish imkonini berishini ta'kidlaydi. So'nggi 15–20 yil ichida pedagogika sohasida kompetensiyaga oid ilmiy tadqiqotlar soni 70–90 barobar oshgan bo'lsa-da, bu tushuncha mazmuniga oid ayrim qarama-qarshi talqinlar hanuzgacha mavjud.

Yo'l harakati bo'yicha ta'lim oluvchilar uch xil mezon asosida baholanishi mumkin:

–Fanda – yo'l harakati jarayonlari, hodisalari va qonuniyatlarini ilmiy jihatdan asoslay oladigan shaxs;

–Ta'limda – yo'l harakati xavfsizligi standartlariga mos bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda ularni amaliyotda qo'llay oladigan shaxs;

–Amaliyotda – yo'l harakati borasida tajribaga ega, boshqalarga maslahat bera oladigan hamda o'qituvchi yoki murabbiy sifatida faoliyat yuritadigan shaxs.



O'zbekiston ta'lim tizimida "yo'l harakati kompetensiyasi" tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ba'zilarga ko'ra, bu — tegishli nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatidir. Masalan, maktabda to'rt yil davomida fizika fanini o'rgangan o'quvchilarning aksariyati shahar sharoitida avtomobil tezligini cheklash sabablarini bilmasliklarini ta'kidlashadi. Demak, kompetensiya faqat nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish bilan cheklanmaydi, balki u chuqur tahliliy fikrlash, ijtimoiy javobgarlik va xavfsizlik madaniyatini o'z ichiga oladi.

Yo'l harakati bo'yicha ta'lim — insonni hayotga, mehnatga va ijtimoiy faoliyatga tayyorlovchi tizimli, rejalashtirilgan hamda rasmiy o'quv jarayonidir. Shu bois bu sohada "yo'l harakati kompetensiyasini shakllantirish" iborasi o'rniga "kompetensiyaviy yondashuv asosida yo'l harakati ta'limi" atamasini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Uni quyidagicha ta'riflash mumkin: yo'l harakatiga oid kompetensiyaviy yondashuv — bu insonni hayotga tayyorlashga qaratilgan, tizimli va rejalashtirilgan o'quv jarayonida yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish orqali shaxsni muayyan layoqat, qobiliyat va mahorat darajasiga yetkazish jarayonidir.

Yo'l harakati xavfsizligi jihatidan maktabgacha yoshdagi bolalar alohida e'tibor talab qiladi, chunki ularning tana tuzilishi va fiziologik rivojlanish jarayoni hali barqaror emas. Shu sababli maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar katta yoshdagilar singari yo'llarda xavfsiz harakatlanish malakasiga ega emaslar. Shu bois bu bosqichda ularni yo'l belgilarini tanish, svetofor ranglari ma'nosini bilish, piyodalar o'tish joyidan to'g'ri foydalanish kabi elementar, ammo hayotiy ko'nikmalarga o'rgatish nihoyatda muhimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12-aprel 2022-yilda "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 172-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik to'plami, 2013. 20-son, 251 b.
3. Ермаков Д.С.. Компетентный подход в образовании // Ж. Педагогика. № 4.-М.,2011.- С. 8- 15.
4. 4Майбуров М. Высшее образование в развитых странах // Ж. Образование за рубежом. № 2, 2003.- С. 132-144.
5. Д.С.Ермаков. Компетентный подход в образовании. Ж. Педагогика. № 4.-.М.- 2011. С. 8-15.Chomsky N.
6. Fspekt of the theory of syntax. Cambridge.- R.198-199.